

SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALAR TASNIFINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Zarifjon Qo'ldashev Toxirjon o'g'li,
Qo'gon universiteti doktoranti
zarifjon.qoldashev.97@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ishda sintaktik-stilistik figuralar tasnifining antik davrdan hozirgi kunga qadar bosib o'tgan evolyutsion yo'li tahlil qilinadi. Aristotel, Kvintilian, Lomonosov, Balli va Galperin kabi olimlarning yondashuvlari qiyosiy o'rganilib, ularning an'anaviy qarashlariga nisbatan muallifning tanqidiy munosabati bayon etilgan. Tadqiqotning yangiligi o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda, figuralarni lingvokulturologik tamoyillar asosida tasniflashdan iborat. Xususan, o'zbek nutqidagi «Andisha» kognitiv fenomeni, binar dunyoqarash va ruhiy dinamika figuralari tizimlashtirildi. Tadqiqot natijasida sintaktik figuralar shunchaki nutq bezagi emas, balki milliy etika va lisoniy tafakkurni ifodalovchi madaniy fenomen sifatida asoslandi.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik figuralar, lingvokulturologik talqin, "Andisha" fenomeni, tasnif evolyutsiyasi, binar dunyoqarash, muallif obrazi, lisoniy etika, sintaktik sath, nutq musiqasi, kognitiv-madaniy tahlil.

Аннотация. В данной работе анализируется эволюционный путь классификации синтаксико-стилистических фигур с античных времен до наших дней. Проводится сравнительное изучение подходов таких ученых, как Аристотель, Квинтилиан, Ломоносов, Балли и Гальперин, а также излагается критическое отношение автора к их традиционным взглядам. Научная новизна исследования заключается в классификации фигур на основе лингвокультурологических принципов с учетом специфики узбекского языка. В частности, систематизированы когнитивный феномен «Андиша» в узбекской речи, фигуры бинарного мировоззрения и психической динамики. В результате исследования обосновано, что синтаксические фигуры являются не просто украшением речи, а культурным феноменом, отражающим национальную этику и языковое мышление.

Ключевые слова: синтаксико-стилистические фигуры, лингвокультурологическая интерпретация, феномен «Андиша», эволюция классификации, бинарное мировоззрение, образ автора, языковая этика, синтаксический уровень, музыка речи, когнитивно-культурный анализ.

Abstract. This research examines the evolutionary trajectory of the classification of syntactic-stylistic figures, spanning from antiquity to the contemporary era. The study provides a comparative analysis of the theoretical frameworks established by scholars such as Aristotle, Quintilian, Lomonosov, Bally, and Galperin, while presenting the author's critical evaluation of these traditional paradigms. The novelty of this study lies in the development of a classification for stylistic figures based on linguoculturological principles, specifically tailored to the inherent nature of the Uzbek language. In particular, the cognitive phenomenon of "Andisha" in Uzbek discourse, along with figures representing a binary worldview and psychological dynamics, has been systematized. The findings establish that syntactic figures are not merely ornamental devices of speech; rather, they function as cultural phenomena that manifest national ethics and linguistic cognition.

Keywords: syntactic-stylistic figures, linguoculturological interpretation, "Andisha" phenomenon, evolution of classification, binary worldview, authorial image, linguistic ethics, syntactic level, music of speech, cognitive-cultural analysis.

Kirish. Til taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u nafaqat axborot almashish vositasi, balki milliy tafakkur va madaniy kodlarni saqlash mexanizmi hamdir. Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida til

birliklarini, xususan, sintaktik sathdagi stilistik vositalarni o'rganishda ularning strukturaviy tuzilishidan ko'ra, lisoniy shaxs dunyoqarashi va madaniy o'zligini ifodalashdagi o'rniga e'tibor kuchaymoqda. Sintaktik-stilistik figuralar nutqning ifodaliligi va emotsional ta'sirchanligini ta'minlovchi eng muhim resurslardan biri hisoblanib, ularning tasnifiy asoslarini qayta ko'rib chiqish dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tarixan, sintaktik figuralar antik ritorika davridan boshlab nutqni bezatish (ornatus) va mantiqiy intizomga solish vositasi sifatida talqin qilingan. Aristotel va Kvintiliandan boshlangan ushbu an'ana keyinchalik V. Vinogradov, Sh. Balli va I. Galperin kabi olimlarning tadqiqotlarida strukturaviy, psixolingvistik va funksional jihatdan boyitildi. Biroq, mavjud klassik va zamonaviy tasniflarda figuralar asosan tildagi barqaror normadan chekinish (deviatsiya) yoki emotsional holat in'ikosi sifatida tahlil etilgan. Ularning muayyan millat madaniyati, etik normalari va kognitiv modellari bilan bog'liqligi, ya'ni lingvokulturologik tabiati yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Xususan, o'zbek tilshunosligida sintaktik figuralarning musiqiyligi va stilistik funksiyalari o'rganilgan bo'lsa-da, ularning zamirida yotgan milliy tafakkur algoritmlari ochiq qolmoqda. Masalan, g'arb tillarida "tejamkorlik prinsipi" (economy principle) deb baholanadigan ellipsis va aposiopesis hodisalari o'zbek lisoniy muhitida shunchaki so'z tejash emas, balki chuqur madaniy asosga ega bo'lgan "Andisha" kognitiv-madaniy fenomeni bilan bog'liqdir. Shuningdek, o'zbek xalqining olamni juftlikda idrok etish an'anasi (binar dunyoqarash) sintaktik parallelizm va antiteza kabi figuralarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sintaktik-stilistik figuralar tasnifini antik davrdan boshlab evolyutsion tahlil qilish hamda o'zbek tili materiali misolida ularning lingvokulturologik talqinini ishlab chiqishdan iborat. Ishda an'anaviy tasniflardagi "formalism" tanqidiy o'rganilib, figuralarni milliy etika, andisha va ruhiy dinamika tamoyillari asosida guruhlash taklif etiladi. Bu esa o'z navbatida badiiy matn tahlilida muallif obrazini milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg'unlikda ochib berishga xizmat qiladi

Adabiyotlar tahlili. Sintaktik-stilistik figuralarning nazariy taraqqiyoti antik ritorikadan zamonaviy lingvokulturologik paradigmalargacha bo'lgan bir necha bosqichni qamrab oladi:

1. Klassik yondashuv: Aristotel [1, B.155] va Kvintilian [6, B.411] figuralarni nutqning mantiqiy-estetik muvozanati va shakliy o'zgarishi (tropdan farqli o'laroq) sifatida asoslagan bo'lsa, M.V. Lomonosov ularni "nutq bezaklari" sifatida tasnifladi.[5, B.258-287]

2. Strukturaviy-funksional yondashuv: XX asrda Sh. Balli figuralarni so'zlovchi ruhiyatining "termometri", V. Vinogradov esa "muallif obrazi"ni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida talqin etdi.[9, B.166]. I. Galperin esa figuralarning ierarxik tizimi va

semantik-ekspressiv butunligini tadqiq etib, eng mukammal strukturaviy tasnifni taqdim etdi.[3, B.20].

3. O‘zbek tilshunosligi: S. Sultonsaidova va O‘. Sharipova figuralarning ohangdorlik (“nutq musiqasi”) xususiyatlarini[8, B.64], yoritganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlarda figuralar asosan shakliy, mantiqiy yoki emotsional birlik sifatida tahlil qilingan. Ularning “ichki madaniy kodi”, xususan, o‘zbek nutqidagi “Andisha” fenomeni va binar dunyoqarash bilan bog‘liq lingvokulturologik tabiati tizimli o‘rganilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga va figuralarni milliy tafakkur algoritmlari sifatida qayta tasniflashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu jarayonda, tarixiy usuldan foydalanib, antik davr olimlari Aristotel, Kvintilian kabi olimlarning tasniflari amaliy va tahliliy o‘rganildi, shuningdek, qiyosiy metod yordamida esa tilshunos olimlar Charl Balli, Lomonosov, Vinogradovlarning bu figuralarga bergan tasniflari solishtirildi. Tanqidiy metod orqali ushbu olimlarning fikrlariga bizning lingvokulturologik nuqtayi nazarimiz berib o‘tildi. Korpus usuli orqali o‘zbek adabiyotidan turli misollar aniqlandi va bu misollar biz tomonimizdan taklif qilinayotgan figuralarning lingvokulturologik jihatdan tasnif-garmoniy va binar, andisha va implisit, ekstransiv va ruhiy dinamika uchun amaliy isbot uchun berib o‘tildi.

Tahlillar va natijalar. Sintaktik figuralarni tizimlashtirishning ilk kurtaklari antik Gretsiya va Rim ritorika maktablarida namoyon bo‘ladi. Aristotel o‘zining “Ritorika” asarida nutqning jozibadorligini ta‘minlovchi vositalarni ilk bor mantiqiy va lingvistik jihatdan farqlashga urindi.[1, B.155]. Uning talqinicha, period – bu nutqning mantiqiy yakunlangan, tinglovchi tomonidan oson qabul qilinadigan qismidir. Aristotel davrida figuralar (antiteza, parison, homoioteleuton) asosan mantiqiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kognitiv nuqtayi nazardan bu jarayon inson miyasining axborotni tugallangan bloklarda qabul qilish xususiyati bilan bog‘liqdir. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, periodik nutq - bu tartibsizlikdan mantiqiy intizomga o‘tish bo‘lib, u tinglovchining axborotni qabul qilish imkoniyatlari (kognitiv chegara) bilan mos tushadi. Ya‘ni, inson ongi tugallanmagan jarayondan ko‘ra, yakuni aniq bo‘lgan mantiqiy birlikni (periodni) osonroq o‘zlashtiradi va xotirasida saqlaydi. Bizning fikrimizcha, Aristotel tomonidan taklif etilgan uch asosiy figurani (antiteza, parison, homoioteleuton) shunchaki stilistik bezak emas, balki nutqda adolat va go‘zallikni birlashtirish uchun ishlatgan.

Kvintilian esa tilshunoslik tarixida ilk bor “trop” (ma‘no ko‘chishi) va “figura” (shakl o‘zgarishi) tushunchalarini o‘zaro farqlab berdi. U figuralarni ikki guruhga: fikr figuralari (figurae mentis) va so‘z figuralari (figurae elocutionis)ga ajratishni taklif etdi.[6, B.411]. Bu yondashuv nutqiy ta‘sirchanlik faqat chiroyli so‘z tanlashda emas, balki ularni qanday sintaktik qolipga solishda ekanligini isbotladi. Kvintilian tomonidan taklif etilgan

“fikir” va “so‘z” figuralari o‘rtasidagi keskin chegara antik davr uchun o‘rinli bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi lingvopragmatika nuqtayi nazaridan bu ajratish nisbiydir. Mualliflik nuqtayi nazarimizga ko‘ra, har qanday sintaktik shakl (so‘z figurasi) ortida albatta muayyan kognitiv niyat (fikir figurasi) yashirin bo‘ladi. Binobarin, figura - bu shunchaki tashqi “kiyim” emas, balki fikrning lisoniy modellashtirilgan shaklidir.” XVII-XIX asrlarda sintaktik figuralar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

M.V. Lomonosov figuralarni “nutq bezaklari” sifatida tasniflab, ularni gapning mantiqiy va hissiy quvvatini oshiruvchi mexanizmlar deb baholadi.[5, B.258-287]. Biroq, zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, figuralar shunchaki “bezak” (ornament) emas, balki matnning strukturaviy-semantik asosidir. Chunki figura olib tashlansa, matn nafaqat jozibasini, balki muallif ko‘zda tutgan pragmatik urg‘uni (fokusni) ham yo‘qotadi.

XX asrga kelib, Sharl Balli stilistikani psixolingvistikaga yaqinlashtirdi va figuralarni “ruh termometri” (thermomètre de l’âme) deb atadi.[2, B.311-312] U sintaktik o‘zgarishlarni bevosita so‘zlovchi miyasidagi emotsional jarayonlar bilan bog‘ladi. Sharl Balli figuralarni so‘zlovchi ruhiyatining in‘ikosi deb bildi va stilistikani psixolingvistikaga yaqinlashtirdi. Bizning fikrimizcha, bu o‘zgarish tilshunoslikning “shakl”dan “shaxs”ga qarab burilishini anglatadi. Ammo shuni qo‘shimcha qilish kerakki, sintaktik figura nafaqat shaxsiy emotsiya, balki o‘sha shaxs mansub bo‘lgan jamiyatning emotsional-madaniy kodini ham o‘zida tashiydi.

Akademik V.V. Vinogradov esa “muallif obrazi” tushunchasini kiritib, figuralarni matnning estetik va mantiqiy butunligini ta‘minlovchi struktural-kompozitsion birliklar sifatida talqin etdi. Vinogradov tizimida sintaktik figuralar shunchaki hissiyot ifodasi (Sh. Balli talqinidek) emas, balki matnning barcha qismlarini o‘zaro bog‘lovchi, uning estetik va mantiqiy butunligini ta‘minlovchi struktural-kompozitsion” birliklardir. Olimning eng katta kashfiyoti – “muallif obrazi” (о́браз автора) tushunchasi bo‘lib, u sintaktik figuralarni ushbu obrazni shakllantiruvchi markaziy vosita sifatida talqin etadi.[9, B.166]. Ya‘ni, jumlada qo‘llanilgan har qanday takror, antiteza yoki inversiya shunchaki badiiy bezak emas, balki muallifning voqelikka munosabati va uning o‘ziga xos dunyoqarashini ifodalovchi lisoniy birliklardir deb tasniflagan. Shunday qilib, Vinogradov nazariyasi sintaktik figuralarni matnning shunchaki bir qismi emas, balki uning umumiy me‘moriy (kompozitsion) loyihasini belgilovchi bosh omil sifatida o‘rganishga yo‘l ochdi. Uning aytishicha, yozuvchi gaplarni qanday tuzishi (masalan, so‘zlarni qanday takrorlashi yoki tartibini qanday o‘zgartirishi) orqali o‘zining kimligini va “ichki qiyofasi” ni (muallif obrazini) ko‘rsatib beradi. Tasavvur qiling, ikki kishi bitta voqeani aytib beryapti. Biri qisqa, kesiq gaplar ishlatadi. Vinogradov aytadiki, mana shu gap tuzish uslubining o‘ziyiq bizga yozuvchining qanaqa odam ekanligini, nima haqida o‘ylayotganini aytib beradi. Figura - bu shunchaki bezak emas, bu muallifning “yuzi”dir. “Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib

quyoshga aylangandir.” (Sintaktik parallelizm).[4, B.6]. ”Ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan.” (Xiazm va antiteza) [4, B.8] kabi misollar O‘tkir Hoshimov uslubidagi sintaktik takrorlar va binar qurilmalar Vinogradov aytganidek, shunchaki “yuzi” emas, balki uning milliy qadriyatlarga sodiq ichki qiyofasini shakllantiradi.

I.R. Galperin ingliz va rus tillari materialida stilistik figuralarning eng mukammal tasnifini taqdim etdi. U figuralarni sintaktik aloqa usullari (inversiya, detachment), nutqning miqdoriy o‘zgarishi (ellipsis, va parallelizm (anafora, epifora) tamoyillari asosida tizimlashtirdi. Sintaktik qurilmalarning matn yaratish imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy stilistikaning fundamental yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada I.R. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan tasnif tizimi o‘zining mantiqiy izchilligi va lisoniy birliklarni iyerarxik tizimlashtirganligi bilan ajralib turadi. Olim an’anaviy ritorikadan farqli o‘laroq, stilistik vositalarni (Stylistic Devices) tildagi oddiy ifoda vositalaridan (Expressive Means) qat’iy farqlaydi va ularni nutqning semantik-ekspressiv butunligini ta’minlovchi maxsus birliklar sifatida baholaydi.[3, B.20].

Xususan o‘zbek tilshunosligida ham sintaktik figuralar tasnifi bo‘yicha bir nechta tilshunoslar o‘z qarashlarini aytib o‘tishgan. S. Sultonsaidova va O‘.Sharipova tasnifiga ko‘ra, sintaktik figuralar nutqni ohangdor, jozibali qilish va tinglovchining tushunishini osonlashtirishga xizmat qiluvchi “nutq musiqasi” hisoblanadi.[8, B.64].

Adabiyotshunos olim D. Quronov badiiy nutqning tashkillanishida gap qurilishining o‘rnini alohida ta’kidlab, poetik sintaksisni “sintaktik sathdagi normadan og‘ishlar” sifatida tavsiflaydi.[7, B.212-213]. Muallifning fikricha, bunday og‘ishlar nutqning musiqiylikni, emotsionalligini va ta’sirdorligini ta’minlovchi asosiy omildir. Sintaktik figuralarni lingvokulturologik jihatdan baholar ekanmiz, D.Quronov tomonidan tavsiflagan inversiya va parallelizm hodisalari o‘zbek xalqining badiiy tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘ramiz. O‘zbek tili agglutinatativ til bo‘lganligi bois, gapda so‘zlar tartibining nisbatan erkinligi (inversiya) shunchaki grammatik erkinlik emas, balki nutq egasining emotsional-estetik markazni (fokusni) belgilashdagi milliy-madaniy ehtiyojdir.

Yuqorida tahlil qilingan antik davr ritorikasi (Aristotel, Kvintilian), klassik stilistika (Lomonosov) hamda zamonaviy funksional va strukturaviy stilistika (Sh.Balli, V.Vinogradov, I.Galperin, D.Quronov) vakillarining qarashlari shuni ko‘rsatadiki, sintaktik figuralar uzoq vaqt davomida faqat nutqiy bezak yoki mantiqiy vosita sifatida o‘rganib kelingan.

Bizning fikrimizcha, an’anaviy tasniflarda sintaktik figuralarning “ichki madaniy kodi” e’tibordan chetda qolgan. Masalan, I.R. Galperin tasnifida figuralar tildagi norma va badiiy niyat ziddiyati sifatida baholansa, o‘zbek lingvokulturologik muhitida bu “ziddiyat” aslida xalqning muloqot madaniyati, andishasi va dunyoqarashi bilan uyg‘unlashgan

bo'ladi.

Sultonsaidova va O'.Sharipova taklif etgan "nutq musiqasi" tushunchasini kengaytirib aytish mumkinki, o'zbek tili sintaktik figuralari shunchaki ohangdorlik emas, balki "ijtimoiy tavoze va lisoniy etika" mexanizmidir. Masalan, inversiya o'zbek nutqida shunchaki so'z tartibini buzish emas, balki suhbatdoshning diqqatini milliy qadriyatlar tizimidagi eng muhim tushunchaga (fokusga) yo'naltirish usullaridan biridir.

Sintaktik-stilistik figuralarni biz lingvokulturologik tomondan o'rganayotganligimiz uchun biz yuqoridagi berilgan tasniflardan kelib chiqib, quyidagi tasnifimizni keltirib o'tmoqchimiz. Biz tadqiqotimiz davomida o'zbek tili tabiatidan kelib chiqib, sintaktik figuralarni lingvokulturologik funksiyasiga ko'ra quyidagi uchta yirik guruhga ajratishni taklif etmoqchimiz:

1. **Garmoniya va binar (juftlik) dunyoqarash figuralari:** (Sintaktik parallelizm, antiteza, xiazm). Ushbu figuralar o'zbek xalqining olamni «juftlik» (tun va kun, yaxshi va yomon) asosida idrok etish an'anasini aks ettiradi va nutqda tartib yaratishga xizmat qiladi.

Misol uchun, «Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan»[4, B.8]. Ushbu jumlada muallif o'zbek lisoniy tafakkuridagi eng muqaddas juftlik - Ona va Bola munosabatini binar oppozitsiya asosida modellashtirgan. Birinchi gapda sub'ekt (Ona) va ob'ekt (Bola) o'rtasidagi munosabat ikkinchi gapda o'rin almashadi. Bu shunchaki so'z o'yini emas, balki kognitiv garmoniya (muvozanat) hosil qilish usulidir. "Go'yo butun dunyo bir taraf-u siz o'zingiz bir taraf..." [4, B.4]. Ushbu jumlada dunyo va siz antiteza orqali binar tushunchalar yonmayon qo'yilgan. An'anaviy stilistikada ushbu holatlar faqat «takror» yoki «zidlash» deb baholangan bo'lsa, bizning lingvokulturologik talqinimizda bular xalqning dunyoni «juftlikda ko'rish» (binar) falsafasining sintaktik in'ikosidir. Ya'ni, bir tushuncha (Ona) mavjud bo'lishi uchun uning binar jufti (Bola) ham mantiqan, ham grammatikan parallel kelishi shart.

2. **Andisha va implitsit (yashirin) mazmun figuralari:** (Ellipsis, aposiopesis/jim qolish, ritorik so'roq). Bular g'arb tillaridagi "tejamkorlik prinsipi"dan farqli o'laroq, o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan "Andisha" kognitiv-madaniy fenomeni asosida shakllanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan andisha fenomeni nutqda fikrni to'liq aytmaslik (aposiopesis) yoki tinglovchiga savol orqali hukm chiqarish imkonini berish (ritorik so'roq) shaklida namoyon bo'ladi. Bu holatda ellipsis shunchaki tejamkorlik emas, balki madaniy ehtirom belgisidir.

"Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas" [4, B.8]. "Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha?" [4, B.7]. Ushbu misollarda o'zbek muloqot tizimining o'zagi bo'lgan »Andisha« kognitiv fenomeni sintaktik sathda namoyon bo'ladi. Birinchi misolda muallif ellipsis (tushirib qoldirish) va lisoniy tejamkorlik usulidan foydalangan. «Ona»

soʻzidan keyin uning muqaddasligi, ulugʻvorligi yoki mehribonligini ifodalovchi sifatlar (masalan: muqaddas, moʻtabar, buyuk) ataylab tushirib qoldirilgan. Bu erda «sifat kerakmas» jumlasini orqali ona tushunchasining oʻzbek kognitiv olamidagi oʻrni har qanday lisoniy taʼrifdan baland ekanligi implitsit (yashirin) tarzda uqtirilgan. Ikkinchi misolda esa ritorik soʻroq figurasi orqali oʻzbek xalqiga xos boʻlgan “taqdirga tan berish” falsafasi ifodalangan. Savol javob talab qilmaydi, aksincha, inson irodasidan tashqari boʻlgan fojialar (ona vafoti) qarshisidagi oʻzlikni andisha bilan bayon etadi. Ushbu misollar orqali xulosamiz shuki, ellipsis va ritorik soʻroqlar asarda shunchaki gapni qisqartirishga emas, balki soʻz bilan aytib boʻlmaydigan “ichki dard va ehtirom”ni ifodalashga xizmat qiladi.

3. **Ekstansiv (kuchaytirish) va ruhiy dinamika figuralari:** (Gradatsiya, anafora, epifora, takrorlar). Ushbu guruh inson ruhidagi emotsional koʻtarilishni va maʼnaviy pogʻonama-pogʻona oʻsishni lisoniy modellashtiradi. Inson ruhidagi emotsional portlashlar va pogʻonali koʻtarilish odatda gradatsiya va takrorlarning zanjirsimon bogʻlanishi orqali beriladi. Bu vositalar quyidagi misollarda «ona sogʻinchi» yoki «ijtimoiy iztirob» kabi insonga xos ruhiy emotsional holatlarni lisoniy jonlantirishga xizmat qiladi.

«Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...». (takror)[4, B.253]. «Kerakmas! Kerakmas! Kerakmas!». (Emotsional ekstansivlik)[4, B.23]. «Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam oʻlib qoladi!». (Anafora orqali ruhiy dinamika).[4, B.18].

Sintaktik-stilistik figuralar tasnifining antik davrdan bugungi kunga qadar bosib oʻtgan evolyutsion yoʻli tahlili shuni koʻrsatadiki, bu lisoniy hodisalar uzoq vaqt davomida faqat nutq bezak yoki mantiqiy muvozanat vositasi sifatida talqin etilgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Aristotel, Kvintilian, Galperin va Vinogradov kabi olimlarning fundamental qarashlari qiyosiy-tanqidiy tahlil qilinib, ularning anʼanaviy yondashuvlaridagi “formalizm” (shakliy yondashuv) lisoniy shaxsning milliy-madaniy tabiati bilan toʻldirildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va mualliflik konsepsiyasi shundaki, sintaktik figuralar ilk bor oʻzbek lingvomadaniy muhitining kognitiv mahsuli sifatida tizimlashtirildi. Muallif tomonidan ilgari surilgan “Andisha” kognitiv fenomeni asosida ellipsis va aposiopesis figuralarining qayta talqin qilinishi, ushbu vositalarning shunchaki “tejamkorlik prinsipi” emas, balki milliy etika va ijtimoiy tavoze mexanizmi ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, garmoniya (binar dunyoqarash) va ruhiy dinamika asosidagi yangi tasnifiy guruhlar oʻzbek tili sintaktik sathining nafaqat estetik, balki madaniy-psixologik arxitekturasi ochib beradi.

Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, sintaktik-stilistik figuralar shunchaki nutq musiqasi emas, balki milliy tafakkur algoritmlarini kodlashtiruvchi madaniy fenomenlardir, shuningdek, yuqoridagi berilgan sintaktik figuralar oʻzbek lisoniy shaxsining dunyoni idrok etish (binar), muloqot qilish (andisha) va his qilish (dinamika) usullarini oʻzida mujassam etgan.

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida sintaktik stilistikani antropotsentrik va lingvokulturologik paradigmalari asosida o‘rganishda yangi metodologik bazani shakllantiradi. Bu esa, matn tahlilida muallif obrazini milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlikda o‘rganish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotle. Rhetoric / Translated by W. R. Roberts. Oxford University Press, 2007. – B. 155.
2. Bally C. Traité de stylistique française. Genève: Georg & Cie, 1909. – B. 311-312.
3. Galperin I.R. Stylistics. Moscow: Higher School, 1981. – 299 b.
4. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 336 b.
5. Lomonosov M.V. Kratkoye rukovodstvo k krasnorechiyu // Polnoye sobraniye sochineniy. T. 7. Moskva: Izd-vo AN SSSR, 1952. – B. 258–287.
6. Quintilian. Institutio oratoria / Translated by H. E. Butler. New York: Lyceum Institute, 2024. – B. 411.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 212-213.
8. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: Yurist-Media Markazi, 2009. – B. 64.
9. Vinogradov V.V. O yazyke khudozhestvennoy prozy. Moskva: Nauka, 1980. – B. 166.